QO‘QON MILLIY OHANGLARI VA YALLALARI

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek
milliy musiqa san’ati instituti
“Maqom xonandaligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Vaisov Mansurbek Egamberganovich

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbek musiqa san’atining rang-barangligi, folklor janrlar va hususan Qo‘qon yallalari haqida so‘z boradi.*

Аннотация. *В этой статье речь идёт о разнообразии узбекского музыкального искусства, народных жанров и, в частности, о Кукондском жанре ялла.*

Annotation. *This article deals with the diversity of Uzbek musical art, folk genres, and, in particular, the Kukond genre of yalla.*

Kalit so‘zlar**:** *Yalla, lapar, qo‘shiq, ashula, janr, folklor-etnografik, doston, magiya, naqorat, aruz, ansambl.*

Ключевые слова**:** *Ялла, лапар, песня, напевание, жанр, фольклорно-этнографический, эпос, магия, припев, аруз, ансамбль.*

Keywords**:** *Yalla, lapar, song, humming, genre, folklore and ethnographic, epic, magic, chorus, aruz, ensemble.*

O‘zbek xalqining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi xilma-xil janrlari hamda boy tasviriy vositalari bilan bizning kunlarimizda ham yangramoqda. U o‘zida xalq ijodi (yani asl folklor) hamda kuy tuzilishi jihatidan rivojlangan ashula va cholg‘u asarlar (jumladan turkumli maqom va boshqa janrlar)ni o‘z ichiga olgan og‘zaki an’anadagi professional musiqani birlashtiradi.

Odatda, folklor namunalarining yaratilishi va amal qilishi to‘rt xil yo‘nalishda, ya’ni aytib berish, ijro etish, kuylash va ko‘rsatib berish shaklida namoyon bo‘ladi. Bular tasvir obyektining janri, talqin uslubi va usullari jihatdan o‘zaro farqlanadi. Chunonchi, «aytilish»da nasriy asarlarning og‘zaki bayoni, «ijro etilishda» doston va qissalar ijrosi, «kuylashda» musiqa asbobi jo‘rligidagi ijro, «ko‘rsatilish»da esa amaliyot bilan bog‘liq kinna qilish, xalq dramalari, masxarabozlik kabi ijro shakllari anglashiladi. Muhimi shundaki, yallachilik bu yo‘nalishlarning barchasiga u yoki bu darajada aloqador bo‘lib, har birining mazmuni va ijrosi bilan bog‘liq o‘ziga xosliklarga ega. Masalan, yallalar ijro dasturida ertak va naql kabi nasriy asarlar bayoni kam uchragani holda, qissa va mistik eposni ifodali ijro etish, xalq yallalari hamda ishqiy dostonlarni musiqali ohangga mos ravishda kuylash yetakchi o‘rinni egallaydi.

So‘z va harakat sehri (magiya) yordamida bemorlarni yovuz kuchlardan halos

etishga qaratilgan davolash va «alaslash» faoliyati esa «ko‘rsatish» yo‘nalishining namunasi bo‘lib, yallachilikning deyarli yo‘qolgan shakllaridan biridir.

Xalq she’riyatining qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri - yalla yallalar ijro dasturining asosini tashkil etadi. Undagi janriy rang-baranglik, mazmun va shakl jihatdan turfalik, ijrodagi ohangdorlik yallalarga xos yetakchi belgilardan biridir.

Yallalarni mavzu jihatdan quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

Ishq-muhabbat; Mehnat; Tarixiy.

Albatta, mazkur tasnifda alohida turkumlarga ajratilgan yallalar ijro dasturidagi o‘rni bir xil emas. Chunonchi, ishq-muhabbat mavzusi hamma yallalar ijrosida yetakchi va ko‘lamdor bo‘lgani holda, keyingi guruhlarga mansub yallalar muayyan davr va voqealar bilan bog‘liq holda vujudga kelgan va kuylanish miqyosi ancha cheklanganligi bilan ajralib turadi. Biz ijodkor va ijrochining voqelikka bo‘lgan munosabatini hissiy ifoda etish yallalarning barcha turiga xos yetakchi xususiyat bo‘lgani sababli «lirik yallalar» atamasini asosan ishq-muhabbat yallalari ma’nosida qo‘llaymiz. Birinchisi – ma’lum vaqt yoki ma’lum muddat sharoitidagina ijro etiladigan asarlar va cholg‘u kuylari. Bular: oilaviy marosim yallalari, mehnat yallalari. Allalar hamda har-xil tantana, tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg‘u kuylaridir.

Ikkinchisi – istalgan vaqtda va har qanday sharoitda ijro etiladigan ashula-yalla, va cholg‘u kuylari. Ularga: lapar, qo‘shiq, ashula, yalla, cholg‘u kuylari va doston nomalari kiradi.

Insonga baxt-saodat va ezgulik tilash, inson hayotining muhim kunlarini nishonlash maqsadida o‘tkaziladigan, xalq o‘rtasida qat’iy an’anaga aylanib ketgan xatti-harakatlar marosim deyiladi.

Ushbu keltirilgan janrlar orasida yalla ijrochiligi o‘zbek xalqining boy musiqiy-madaniy hayotini yorqin ifoda etishi, milliy an’ana va qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi hamda o‘zining sodda va o‘ynoqiligi, kuy melizmlarining rang-barangligi bilan ajiralib turadi.

Yalla janrida ham xalq hayoti va ijodi yaqqol ko‘rinadi va o‘zbek musiqa janrlari orasida alohida o‘rin egallaydi. Yallada raqs mushtarakdir. Ana shu hususiyatlari, yani raqsbopligi, raqsning ijro etilishi, ijroda ko‘pchilikning ishtirok etishi kabi jihatlari laparga yaqin janr ekanligidan dalolat beradi. Yalla so‘zi o‘ynab-kulish, kuylash, xursandchilik qilish manolarini bildiradi. Yallada band-naqorat shakli barqarordir. Bu holat laparlarda ko‘rinmaydi. Chunki laparda naqorat ishlatilmaydi. Yalla ko‘proq yakka va jamoa ijrosida qo‘llaniladi. Demak band naqoratchi yallachi va jamoa (naqoratchi) navbatma-navbat kuylashadi. Yallada o‘ynab-kuylash hususiyati uning she’riy matniga bog‘liq. Yengil hazil-mutoyiba bilan barmoq vaznidagi she’rlar yallaga xush kayfiyat baxsh etadi. Naqoratni yanada o‘ynab kulishga chorlovchi “Yallo”, “Yalli” so‘zlari boshqaradi. Yallada barcha musiqa asboblari ishlatiladi, ijro

jarayonida raqsboplikni barqaror ushlashi uchun doira asosiy jo‘rnavoz soz musiqa asbobi xisoblanadi. Yalla ikki turga bo‘linadi:


1. Yalla janriga yaqin kuyi nisbatan tor ijro ko‘lamli, asosiy misralar yakkaxon yallachi, naqorat esa guruh tomonidan doira jo‘rligida aytiladi (“Olmacha anor”, “Yallama yorim”, “Hoho yalla”, “Qizgina”);

2. Kuy ijro ko‘lamining kengligi va tuzilishi (aytimlarda baland pardali avj mavjudligi) jihatidan ashula janriga yaqin. Xalq orasida “Yali-yali”, “Qalam qoshligim”, “Janon bo‘laman deb”, “Ayrilmasun”, “Fig‘ondur” kabi mumtoz yallalar keng tarqalgan.

Yalla – keng tarqalgan ashula raqssimon janr bo‘lib ishqiy – lirik mazmuni bilan yakkanavoz (xonanda yoki yallachi) tomonidan cholg‘u ansambli jo‘rligida ijro etiladi. Mumtoz yallalar xalq yo‘lidagi yallalarga nisbatan keng ko‘lamli rivojlangan kuyi, jozibali va o‘ynoqi xarakteri bilan farq qiladi. Xalq yallalari tor ko‘lamli bo‘lib, uning she’riy matnidagi har bir bandi (asosan xalq she’riyatida qo‘llangan) va raqs harakatlari yakkaxon yallachi, naqorati esa guruh tomonidan cholg‘u jo‘rligi (ko‘proq doira yoki dutor) aytilib kelingan.

Namanganda Yalla turkumlari mavjud: yallachi ayollar tomonidan doira jo‘rligida “Katta yalla” va “Kichik yalla” (kuyi va usuli murakkab. ijrosi mukammal) namunalari to‘y marosimlari va bazmlarda ijro etiladi. Ashula va yalla namunalaridan “Yor istab” “Mustaxzod” yoki katta ashula va yalladan iborat. “Topmadim”, ”Baxt yetaklab”, “So‘rmaysan” turkumlari ham mavjud. Hozirgi kunda yallalar estrada yo‘nalishida ham ijro etiladi. Yakka xoldagi yallachi, odatda o‘z aytimlariga dutor yoki doira sozida jo‘r bo‘ladi. Xadiyaxon Hamdamova. Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Rahima Mirzohidova va Oyimqiz To‘xtayevalar yallachilik san’atining mohir ijrochilaridir. Yallachilarning yana bir ko‘rinishi ham borki, uning ijrochilarini Namanganda “Satang” deb ataydilar. Xolisxon Qirg‘izboyeva, Saltanatxon Aliyeva Namanganda taniqli yallachilar bo‘lgan. Bazan “Yalla” o‘rnida “O‘yin”, “O‘ynasin”, “Aylansin”, “O‘rgilay”. “Tarallo”, “Ho-yalli” kabi so‘z iboralar ishlatiladi.

Yal-yali



Yallalar

1	Yallola	7	Hoy balli, balli
2	Olmacha anoringga balli	8	Pistani qanday chaqarlar
3	Yallama yorim	9	Qoshi qaro
4	Oltin sandiq ochildi	10	Yalli-yali
5	O‘ynasin	11	Bizni uyni orqasidan
6	O‘ynang qizlar	12	Taralli lalli

O‘ynasin

T.Jalilov



O‘ynang qizlar



Mumtoz yallalar mumtoz she’riyat va ijrochilik madaniyati rivoji bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy topgan (o‘zbek mumtoz va zamonaviy shoirlarning she’rlari so‘z matni sifatida qo‘llangan). Har bir yallada she’rlar soni kuy va hajmiga mutanosib bo‘lib, asarning kuy tuzilishi, rivoji va shaklini ta’minlaydi. Kuylari jozibali bo‘lib, ularning rivojlanishi muayyan ohang, ufar sifat ohanglar takroriga asoslangan, o‘ziga xos raqsbop o‘lchovli ritm-usulida aytiladi.

Yallaning ta’sirchanligi hamma vositalarni bir-biri bilan chambarchas holda mahorat va xushkayfiyat bilan ijro etilishidadir. Mumtoz yallalar yakkanavoz tarzida cholg‘u ansambli jo‘rligida aytilgan, mumtoz va bastakorlik ijodiyotida keng o‘rin olgan. O‘zbek ijrochilik sanatida Ma’murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov kabi xonandalar dasturlarida yallalar salmoqli o‘rin olib keng omma orasida targ‘ib etishgan. Ijrochilik amaliyotida ashula va yalla turkumlari ham mavjud, jumladan, “Yor istab” va “Mustahzod”, “Farg‘ona ruboyisi” kabi yallalar estrada yo‘nalishida

ham ijro etilmoqda. Hamma xonandalar ijro dasturidan mumtoz ashula va mumtoz yalla keng o‘rin olgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, barcha janrlar qatorida yalla janri ham o‘zbek xalqi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi va xalqning ichki kechinmalari, o‘y-hayollari, orzu-umidlari, quvonchu shodliklari, istaklarini bayon qiladi.

Mustaqil O‘zbekistonda ilk bor nishonlangan Navro‘z, shuningdek Mustaqillik bayramlaridan boshlab folklor-etnografik ansambllarining “katta sahna” maydonlariga chiqishlari an’ana tusini ola boshladi. Bu o‘rinda Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq alohida e’tibor bilan o‘tkazib kelinayotgan folklor jamoalari bilan bir qatorda yakkaxon yalla, lapar, qo‘shiq va ashula ijrochilarining, shuningdek oilaviy ansambllarining an’anaviy Respublika ko‘rik-tanlovlari muhim rag‘batlantiruvchi omillardan bo‘lib qolmoqda. Endilikda turli avlod vakillaridan iborat musiqa va raqs dastalarini Respublikamizda ko‘plab uchratish mumkin. Jumladan, bugungi kunga kelib folklor-etnografik ansambllarining umumiy soni 300 dan ortib ketganligi qayd qilinmoqda. Muhimi, bunday ansambllar o‘z bisotidagi mahalliy mehnat aytimlari, mavsumiy-marosim yallalari, to‘y marosimi yallalari, shuningdek lapar, yalla, hajviy yalla va ashulalarni sahnaviy ko‘rinishlarda mahorat bilan ijro etib kelmoqda. *“Besh qarsak”, “Boysun”, “Gulyor”, “Omonyor”, “Gulchexralar”, “Doston”, “Besperde”, “Orzu”, “Yor-yor”, “Chavki”, “Mohi sitora”* va boshqa ko‘plab ansambllar milliy-badiiy merosni, unut bo‘layotgan an’analarni o‘rganib va o‘zlashtirib, so‘ngra ularni tomoshabinlarga tortiq qilayotganlari alohida diqqatga sazovordir.

Ayni paytda mavsum va marosim kuy-yallalarini o‘rganish (ba’zi xollarda qayta tiklandi) va targ‘ib etishda folklor-etnografik ansambllarining hissasi salmoqli bo‘lmoqda.

Ma’lum bo‘lishicha, mavsumiy marosim yallalarining eng ko‘p namunalari go‘zal bahor fasli va undagi ardoqli, ijtimotiy-madaniy ahamiyatga molik hodisa Navro‘z bayramiga bog‘lab ijod etilgan ekan.

Insonning hayotiy yo‘li bilan borliq muhim sana va voqealar har bir xalqda o‘ziga xos tarzda urf-odat yoki marosimlar bilan nishonlanib turilishi an’anaga aylangan.

Xalq musiqa ijodiyotining “nomarosim” aytimlari guruhiga mansub terma, qo‘shiq, lapar, yalla va ashula kabi namunalarga ommaviy axborot vositalari ko‘magida keng tus berilib, turli festival hamda ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazib turilishi ham o‘ziga xos an’ana bo‘lib qolmoqda. Huddi shu yo‘nalishga oid ayollar davrasida namoyon bo‘luvchi Farg‘ona vodiysi «yallachilari», Xorazm “yalla”lari hamda Buxoro “sozanda” dastalarining faoliyati zamonaviy ko‘rinishlarda davom etgani holda, ana shu an’ana davomchilarini musiqiy o‘quv yurtlarida (jumladan, Xorazm yallalari san’atining musiqa maktablarida amaliy o‘zlashtirilishi) tayyorlana boshlanganligi ham e’tiborga loyiqdir. Mazkur janrlar folklor-etnografik ansambllar e’tiboridan chetda qolmadi. Aksincha, ba’zi aytim namunalari ansambllar ijro dasturining asosini

tashkil etmoqda. Masalan, “Omon-yor” folklor-etnografik ansambli (Farg‘ona vodiysi, Qo‘qon shahri) lapar, yalla va termalarni, “Doston” folklor-etnografik ansambli (Xorazm viloyati, Xiva tumani) dostonlardan parchalar bilan bir qatorda lapar, terma, yallalarini, “Mohi sitora” folklor-etnografik ansambli (Buxoro shahri) esa yalla, lapar hamda sozanda dastalariga xos yalla-raqslarni mahorat bilan ijro etadi.



Farg‘ona vodiysi yallachilari (K.Solodov)

Shu bilan birga yallalarimiz butun O‘zbekiston bo‘ylab o‘tkazilayotgan katta bayramlarda, ayniqsa, Mustaqillik Navro‘zga bag‘ishlangan tantana va ommaviy sayillarda, taniqli va yosh san’atkor-havaskorlar ishtirokida berilgan turfa konsert-tomoshalarda o‘zining yorqin ifodasini topmoqda.

Shuni ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda bolalar (musiqiy) folkloriga va shu asosda yosh avlodni ta’lim-tarbiya etish ishiga jiddiy e’tibor berila boshladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bolalar xalq aytim-kuylari milliy musiqiy merosning tarkibiy ajralmas qismi va shu bois, yosh avlodda milliy badiiy qadriyatlar idrokini shakllantirishda muhim omildir.

Ma’lumki, bolalar o‘yinga chanqoq bo‘ladilar, ayni paytda “o‘yin” orqali olamni o‘zlashtiradilar, borliqni o‘ziga xos anglab boradilar.

Xulosa qilib aytganda, hozirda xalq musiqasi namunalarini targ‘ib etishda folklor-etnografik ansambllarining hissasi kattadir. Ko‘pgina hollarda unutilgan

marosim yoki mehnat yallalarining qayta tiklanishi va endilikda “sahna” yallalariga aylanib qolishida ham folklor-etnografik ansamblarining faoliyati sababchidir. Binobarin ko‘p hollarda tinglovchiga “sahna” orqali xalq musiqasining asl nusxasi emas, balki “ikkilamchi” ko‘rinishlari taqdim etilmoqda, bu hol doim maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi. Chunki birlamchi folklor aytimlarini mahalliy aholining asosan keksa va qisman o‘rta yoshdagilari bilgani holda, yosh avlod vakillarining aksariyati bundan bebahra qolmoqdalar. Shu bois ham xalqimiz milliy musiqasining asl chashmalarini, asl go‘zalliklarini ommaga “tortiq” qilishni ham eng muhim ijodiy vazifalar qatorida qarash lozim.

Hozirda O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti pedagogika, madaniyat va san’at bilim yurtlari o‘quv jarayonlariga qator fanlar (O‘zbek xalq, musiqa ijodi, Sharq xalqlari musiqa madaniyati, An’anaviy musiqa asoslari va b.) tarzida tatbiq qilingan. Shu bilan birga O‘zbek xalq musiqasi durdonalaridan yosh avlodni bahramand etish asosida umumta’lim jarayoniga ham musiqiy meros jalb etilayotganligi kuzatilmoqda. Jumladan, musiqiy folklor namunalari maktabgacha tarbiya muassasalari va umumta’lim maktablarining musiqa darslari dasturidan keng o‘rin olgan.So‘nggi yillarda musiqiy folklor borasida yuzaga kelgan ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, muhim o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bilan ham tavsiflanadi. R.S.Abdullayevning Markaziy Osiyo xalqlari marosim musiqasiga bag‘ishlangan ilmiy monografiyasi nashrdan chiqarildi (1994) .Milliy musiqamiz mavqeini xalq orasida yanada oshirishga ommaviy axborot vositalari ham salmoqli hissa qo‘shmoqda. Radio va televideniyening xaftalik ko‘rsatuvlari qatoridan joy olgan xalq ijodiyoti bilan bog‘liq turli mavzudagi yangi ko‘rsatuvlarning paydo bo‘lishi (“Baxshilar lapizi”, “Dastma-dast”, “Soz o‘rganish maktabi”, “Meros”) buning yorqin dalilidir.

Musiqa ijodkorligi barcha yo‘nalishlarining poydevori hisoblanmish xalq musiqasi erkin rivoj topgani sari uning shifobaxsh ma’naviy ta’siri ajoyib badiiy yutuqlarda tobora namoyon bo‘lmoqda. Xalq musiqasi namunalari hozirda mavjud barcha zamonaviy musiqa ijodkorligi, bastakorlik, kompozitorlik ommaviy estrada sohalari uchun bebaho manba, milliy ijtimoiy ohanglarning “sof buloq”lari bo‘lib qolajak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solmonova T. “ O‘zbek musiqasi tarixi” T., 1981 y.
2. Ibroximov O. “O‘zbek xalq musiqa ijodi” T., 1994 y.
3. Abdullayev R. “Obryadovaya muzika Sentralnoy Azii” T., 2009 y.
4. Yuldasheva N. va Nurmatov X. “O‘zbek xalq musiqa ijodi” T,. 2007 y.
5. Yuldasheva N. va Raxmatova N. “O‘zbek musiqa adabiyoti” T., 2016 y.
6. Matyakubov Sh. “An’anaviy ijrochilik tarixi” T., 2018 y.